

**YOSH TADBIRKORLARGA YARATILGAN SHART SHAROITLAR**

*Farg'ona viloyati Uchko'prik tumani 1-politexnikumi biznes asoslari fani
o'qituvchisi Mamadaliyeva Marhaboxon*

Annotatsiya : maqolada yosh tadbiroklarni kolab kuvatlash bo'yicha yaratilgan shart sharoitlar ,hamda qonun tarafidan tadbirkorlarni qo'lash maqsadida kiritilgan qonunlar o'z aksini topgan .

Kalit so'zlar : tadbirkorlik , yoshlar ,biznes, loyiha, qaror

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar — kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risida" 2018-yil 27-iyundagi PF-5466-sonli Farmoniga muvofiq, shuningdek, yoshlarni biznes bilan shug'ullanishga faol jalb qilish hamda ularning tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

"Yoshlar — kelajagimiz" Davlat dasturi doirasida davlat-xususiy sheriklik shartlarida "Yosh tadbirkorlar" kovorking markazlari va "Yoshlar mehnat guzari" komplekslarini qurish hamda faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom 1-ilovaga;

"Yoshlar — kelajagimiz" Davlat dasturi doirasida amalga oshiriladigan tadbirkorlik loyihalarida O'zbekiston yoshlar ittifoqi huzuridagi "Yoshlar — kelajagimiz" jamg'armasining ishtirok etishi tartibi to'g'risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston yoshlar ittifoqi huzuridagi "Yoshlar — kelajagimiz" jamg'armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 16-avgustdagи 669-sonli qaroriga ma muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin. Vazirliklar va idoralar o'zları qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinnbosari — moliya vaziri J.A. Qo'chqorov zimmasiga hamda Vazirlar Mahkamasining Madaniyat, san'at va yoshlar siyosati masalalari axborot-tahlil departamentiga



yuklansin. Mazkur Nizom “Yoshlar — kelajagimiz” Davlat dasturi (keyingi o‘rinlarda Davlat dasturi deb ataladi) doirasida davlat-xususiy sheriklik shartlarida “Yosh tadbirkorlar” kovorking markazlari va “Yoshlar mehnat guzari” komplekslarini qurish hamda faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:davlat sherigi — tuman (shahar) hokimliklari; davlat-xususiy sheriklik — xususiy investitsiyalarni jalg qilish, resurslarni birlashtirish maqsadida davlat sherigi va xususiy sherikning aniq muddatga “Yosh tadbirkorlar” kovorking markazlari va “Yoshlar mehnat guzari” komplekslarini qurish hamda faoliyatini tashkil etishdagi o‘zaro samarali hamkorligi; davlat-xususiy sheriklik loyihasi — “Yosh tadbirkorlar” kovorking markazlari va (yoki) “Yoshlar mehnat guzari” komplekslarini qurish hamda faoliyatini tashkil etish bo‘yicha investitsiyaviy, innovatsion, infratuzilmaviy va boshqa tadbirlar majmui; davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida bitim (keyingi o‘rinlarda bitim deb ataladi) — davlat sherigi va xususiy sherikning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik loyihasini ijro etishning boshqa shartlarini belgilab beradigan davlat sherigi va xususiy sherik o‘rtasida tuzilgan yozma shartnoma; tadbirkorlik subyektlari — Davlat dasturi doirasida tadbirkorlik va daromad keltiradigan mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish istagida bo‘lgan yoshlar tadbirkorligi subyektlari (18 yoshga to‘lgan va 30 yoshdan oshmagan yoshlar), 50 foiz va undan ko‘proq muassislari yoshlardan iborat bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari, shuningdek, yaratiladigan ish o‘rinlarining 70 foizidan kam bo‘lmagan qismini 5 yil davomida yoshlarni ish bilan ta’minalash uchun taqdim etish majburiyatini o‘z zimmasiga oladigan tadbirkorlik subyektlari, jumladan, xorijiy investorlar; xususiy sherik — davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida bitim tuzgan yoki bitim tuzish istagini bildirgan tadbirkorlik subyektlari; “Yosh tadbirkorlar” kovorking markazlari (keyingi o‘rinlarda kovorking markazlari deb ataladi) — yoshlar tadbirkorligi subyektlariga imtiyozli shartlarda binolar, ofis texnikasi va sarflash materiallarini ijaraga berish, ularni Internet jahon axborot tarmog‘i bilan ta’minalash, shuningdek, yoshlarning biznes tashabbuslari, startaplari, g‘oyalari va loyihasini amalga oshirishga boshqacha ko‘mak berish, jumladan, biznes rejalar ishlab chiqish, maslahat, yuridik,



buxgalteriya va boshqa xizmat turlarini ko‘rsatish, forumlar, mahorat darslari va seminarlar tashkil etishga mo‘ljallangan majmua; “Yoshlar mehnat guzari” komplekslari (keyingi o‘rinlarda mehnat guzarlari deb ataladi) — chakana savdo va maishiy xizmatlar ko‘rsatish faoliyatini tashkil etish uchun tadbirkorlik subyektlariga imtiyozli shartlarda ijara joy ajratish orqali yoshlarni ish bilan ta’minlashga mo‘ljallangan majmua. Davlat sherigi va xususiy sherikning kovorking markazi va (yoki) mehnat guzarini o‘zaro manfaatdorlikda tashkil etish bo‘yicha takliflari davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida bitim tuzish uchun asos hisoblanadi. Mazkur bitim namunasi Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi bilan kelishiladi. Ushbu Nizom tasdiqlangunga qadar kovorking markazlari va mehnat guzarlari tashkil etish maqsadida bo‘sh turgan yer uchastkalarini va bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini bepul asosda olgan tadbirkorlik subyektlari bilan davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida bitim tuzish ushbu Nizomga muvofiq amalga oshiriladi. O‘zbekiston yoshlar ittifoqi huzuridagi “Yoshlar — kelajagimiz” jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda Jamg‘arma deb ataladi) o‘z muassisligida tashkil etilgan tadbirkorlik subyekti tomonidan kovorking markazlari va mehnat guzarlarini qurish uchun Jamg‘arma mablag‘lari bilan to‘liq moliyalashtirgan holda ishtirok etishga haqli Kovorking markazlari va mehnat guzarlarini qurishga yo‘naltiriladigan mablag‘lar xususiy sherikning soliq solinadigan bazasidan chegirib tashlanadi. Yoshlar — kelajagimiz” Davlat dasturi doirasida davlat-xususiy sheriklik shartlarida “Yosh tadbirkorlar” kovorking markazlari va “Yoshlar mehnat guzari” komplekslarini qurish hamda faoliyatini tashkil etish ushbu Nizomga **1-ilovaga** muvofiq sxema bo‘yicha amalga oshiriladi. Davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida kovorking markazlari yoki mehnat guzarlarini qurish (joylashtirish) istagini bildirgan xususiy sherik tuman (shahar) hokimligiga ariza bilan murojaat qiladi.

Arizaga quydagilar ilova qilinadi:

- a) yuridik shaxslar uchun — davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma, jismoniy shaxslar uchun — pasport nusxasi;

b) kovorking markazi yoki mehnat guzarini qurish (joylashtirish) uchun rejalahtirilayotgan yer uchastkasi yoki davlat mulki bo‘lgan bo‘sh turgan obyekt to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

v) yer uchastkasiga (binoga) bo‘lgan huquq davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi haqidagi guvohnoma (agar kovorking markazi yoki mehnat guzari xususiy sherikning mulki negizida tashkil qilish bilan bog‘liq bo‘lsa);

g) zaruratga ko‘ra, kovorking markazi yoki mehnat guzarini qurish uchun eskiz loyihami taklif hujjatlari.

9. Davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish bo‘yicha tuman (shahar) hokimliklariga tushgan arizalar ikki ish kunida quyidagilarga asosan ko‘rib chiqiladi:

taqdim etilgan hujjatlarning ushbu Nizomning **8-bandida** nazarda tutilgan talablarga muvofiqligi;

taklif etilayotgan davlat-xususiy sheriklik loyihasi hisob-kitoblarining asoslanganligi hamda iqtisodiy samaradorligi;

davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirishda xususiy sherikning moliyaviy holati, xusan o‘z mablag‘lari va (yoki) u tomonidan jalg etilgan kreditlar va boshqa manbalar hisobiga amalga oshirilishining ta’milanishi;

kovorking markazlari tuman (shahar) markazida, mehnat guzarlari esa ishsiz yoshlar soni ko‘p bo‘lgan aholi punktlarida tashkil etilishi.

10. Ariza ushbu Nizomning **8-bandida** talablari buzilgan holda berilgan bo‘lsa yoki uni ko‘rib chiqish vaqtida **9-band** talablariga javob bermagan taqdirda, hujjatlar ariza beruvchiga bir ish kuni mobaynida qaytariladi.

Taqdim etilgan arizada talablar buzilganligi haqidagi bildirishnomma yozma shaklda, shu jumladan, elektron axborot tizimi orqali xususiy sherikka yetkaziladi (jo‘natiladi). Bildirishnomada qanday talablar buzilganligi, qonun hujjatlarining aniq normalari va xususiy sherik ko‘rsatilgan talablar buzilishini bartaraf etib, hujjatlarni tuman (shahar) hokimligiga takroran ko‘rib chiqish uchun taqdim etishi mumkin bo‘lgan muddat ko‘rsatiladi.



Xususiy sherik talablar buzilishini bartaraf etishga va hujjatlarni takroran ko‘rib chiqish uchun taqdim etishga haqli bo‘lgan muddat yozma yoki elektron bildirishnomalar olingan kundan boshlab uch ish kunidan kam bo‘lishi mumkin emas.

Kamchiliklar bartaraf etilib takror taqdim etilgan ariza qabul qilingan kundan boshlab ushbu Nizomnin belgilangan tartibda qayta ko‘rib chiqiladi.

ADABIYOTLAR ROYXATI :

- 1)Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston yoshlar ittifoqi huzuridagi “Yoshlar — kelajagimiz” jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 16-avgustdagi 669-sodan qaroriga kiritilayotgan o‘zgartirishlar
- 2)Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 28.11.2018-y., 09/18/962/2235-sod; 12.03.2021-y., 09/21/132/0202-sod; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 08.07.2022-y., 09/22/375/0618-sod; 15.05.2024-y., 09/24/282/0347-sod)